



DUALISTIK MOLIYA TIZIMI EGA MALAZIYA, INDONEZIYA VA BANGLADESHNING MOLIYA BOZORI HOLATI TAHLILI

Zayniddinov Ruhiddin

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0000-0002-2778-8147

r.zayniddinov@tsue.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada alternativ moliya tizimini an'anaviy moliya tizimiga integratsiyalash orqali dualistik moliya tizimida ishlovchi Malaziya, Indoneziya va Bangladesh kabi mamlakatlarning moliya bozori joriy holati tahlili qilinadi. Jumladan, ushbu maqolada asosiy e'tibor Malaziya, Indoneziya va Bangladeshning islomiy va an'anaviy banklarining mamlakat moliya bozoridagi ishtirokining qiyosiy tahliliga qaratilgan bo'lib, bunda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sektorini moliyalashtirish holati, investitsiyalar jalb qilish va boshqa xizmat ko'rsatish faoliyati turlarining holati tadqiq etiladi. Ushbu tadqiqotni olib borishda asosan miqdoriy yondashuvdan foydalanilgan.

Kalit so'zlari: dualistik moliya tizimi, islom moliyasi, islom banki, islomiy darcha, an'anaviy moliya, Malaziya, Indoneziya, Bangladesh.

АНАЛИЗ СОСТОЯНИЯ ФИНАНСОВОГО РЫНКА МАЛАЙЗИИ, ИНДОНЕЗИИ И БАНГЛАДЕШ С ДУАЛИСТИЧЕСКИМИ ФИНАНСОВЫМИ СИСТЕМАМИ

Зайниддинов Рухиддин

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В данной статье анализируется текущее состояние финансовых рынков таких стран, как Малайзия, Индонезия и Бангладеш, которые функционируют в дуалистической финансовой системе путем интеграции альтернативной финансовой системы в традиционную финансовую систему. В частности, в данной статье основное внимание уделяется сравнительному анализу участия исламских и традиционных банков на финансовых рынках Малайзии, Индонезии и Бангладеш, изучению состояния финансирования производственных и сервисных секторов, привлечения инвестиций и других видов сервисной деятельности. В данном исследовании в основном используется количественный подход.

Ключевые слова: дуалистическая финансовая система, исламские финансы, исламский банкинг, исламское окно, традиционные финансы, Малайзия, Индонезия, Бангладеш.

ANALYSIS OF THE FINANCIAL MARKET STATUS OF MALAYSIA, INDONESIA AND BANGLADESH WITH DUALISTIC FINANCIAL SYSTEMS

Zayniddinov Rukhiddin

Tashkent State University of Economics

Abstract. This article analyzes the current state of the financial markets of countries such as Malaysia, Indonesia, and Bangladesh, which operate in a dualistic financial system by integrating the alternative financial system into the conventional financial system. In particular, this article focuses on a comparative analysis of the participation of Islamic and conventional banks in the financial markets of Malaysia, Indonesia, and Bangladesh, examining the state of financing of the production and service sectors, attracting investments, and other types of service activities. This study mainly uses a quantitative approach.

Keywords: dualistic financial system, Islamic finance, Islamic banking, Islamic window, conventional finance, Malaysia, Indonesia, Bangladesh.

Kirish.

So'ngi 20 yillikda ko'plab mamlakatlar moliya tizimini rivojlantirishda dualistik moliya tizimini yo'lga qo'yish va rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Bu an'anaviy moliya tizimi bilan islom moliyasi tizimini parallel ravishda mamlakat iqtisodiy taraqqiyoti yo'lida ishlashini anglatadi.

Jahonda islom moliya tizimi jadal sur'atlarda rivojlanib borayotgan va ishonchli, innovatsion moliyalashtirish mexanizmlarini o'zida jamlangan sohalardan biri hisoblanib, ayniqsa aholisining asosiy qismi musulmonlardan iborat bo'lgan davlatlar uchun ushbu tarmoqni rivojlantirish, dolzarb hisoblanadi.

2022 yil yakunlari bo'yicha ushbu tarmog'ning yalpi aktivlari miqdori 4,5 trillion AQSh dollarini tashkil etdi va yiliga o'rtacha 10-15 foizga o'sib bormoqda.

Islom moliyaviy xizmatlar kengashi (2022) ma'lumotlariga ko'ra, 75 dan ortiq mamlakatlarda 600 ga yaqin islom banklari va islom banki bo'limiga (islomiy darchalar) ega taxminan 200 dan ortiq an'anaviy banklar mavjud.

Global islomiy moliya sanoatining uchta asosiy yo'nalishi bank ishi, kapital bozorlari va takaful (islomiy sug'urta) hisobiga yiliga ikki xonali o'sish raqamini qayd etib bormoqda. Shu bilan birga, islom moliyasi taraqqiy etgan mamlakatlarning ko'pchiligi dual moliya tizimiga ega bo'lib, islom moliyasi an'anaviy moliya tizimi bilan parallel ishlashi mumkinligini ko'rsatib kelmoqda.

An'anaviy moliya tizimiga islomiy moliya tizimini integratsiyalashtirib dual moliya tizimini muvaffaqiyatli yo'lga qo'ya olgan 3 ta mamlakat Malayziya, Bangladesh va Indoneziya mamlakatlarini tadqiq etish ushbu tadqiqotimizning maqsadi hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, islom moliyasi bugungi kunda butun dunyo bo'ylab juda tez sur'atda rivojlanib borayotgan jahon moliya sanoatining yetakchi qismi sifatida e'tirof etilmoqda. Islom moliyasi eng ilg'or soha sifatida nafaqat musulmon mamlakatlari, balki musulmon bo'lmagan mamlakatlar ham o'z moliya sanoatlarida dual moliya tizimini tashkil etishda foydalanishmoqda.

Dual moliya tizimi - ya'ni islomiy va an'anaviy moliya tizimlarining bir vaqtning o'zida mavjudligi - moliya sohasida muhim va murakkab masalalardan biridir. Bu tizim, ayniqsa, islomiy moliya tamoyillari va an'anaviy moliya amaliyotlarini birlashtirgan mamlakatlarda, iqtisodiy va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda o'zining rolini ko'rsatmoqda. Bu mavzu bo'yicha turli tadqiqotlar, har bir tizimning o'ziga xos xususiyatlarini, uning mamlakat iqtisodiyotiga ta'sirini, hamda dual tizimning samaradorligini tahlil qilishga qaratilgan.

Islomiy va an'anaviy bankchilik tizimlarining qiyosiy tahlilini olib borish, so'nggi yillarda ko'plab tadqiqotlarning asosiy mavzularidan biri bo'lib kelmoqda. Islomiy bankchilikning asosiy xususiyatlari, ribo (foiz), maysir, g'arar va g'abnni taqiqlash va investitsiyalarning ijtimoiy va axloqiy jihatlariga e'tibor berishga qaratilgan. An'anaviy bankchilik tizimi esa, odatda, bozor iqtisodiyotining talab va taklif tamoyillari asosida faoliyat yuritib, ijtimoiy tengsizlikni oshirishga hissa qo'shishi bilan kamchilik tomonlari namoyon bo'ladi. Islomiy bankchilik tizimi va an'anaviy bankchilik tizimlarining o'zaro ta'siri va samaradorligini tahlil qilish, global moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Jumladan, bulardan, Abed va Al-Matar (2018) ilmiy ishlarida islomiy va an'anaviy moliya tizimlarining o'zaro ta'sirini o'rganishgan. Tadqiqotchilar maxsus metodologiya asosida, dual tizimga ega bo'lgan mamlakatlarda moliya barqarorligi va rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlikni tadqiq etishgan. Tadqiqotda, ikki tizimning integratsiyasi iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatganligi, ammo ba'zi mamlakatlarda bu tizimlarning bir-biriga moslashishi qiyin bo'lgani haqida ham so'z boradi. Yondashuv sifatida iqtisodiy model va statistik tahlil usullari qo'llanilgan. Mazkur tadqiqotning natijasida dual moliya tizimi iqtisodiy barqarorlikka olib kelishi mumkinligi, lekin uning samaradorligi har bir mamlakatning iqtisodiy holatiga qarab farq qilishi aniqlangan. Shuningdek, Xan (2020) olib borgan tadqiqot ishida Islomiy va an'anaviy moliya tizimlarining iqtisodiy o'sish va barqarorlikka ta'sirini o'rgangan. Tadqiqotda, islomiy moliyaning asosiy tamoyillari, masalan, ribo (foiz)ni taqiqlash va riskni taqsimlash, an'anaviy moliya tizimi bilan qiyoslanadi. Tadqiqotda keys stady (case study) yondashuvi orqali Saudiya Arabistoni va Malayziya misolida dual tizimni tadqiq etiladi. Ilmiy ishning natijasida Islomiy moliya tizimi ko'proq ijtimoiy barqarorlikka xizmat qilgan bo'lsa, an'anaviy tizim iqtisodiy o'sishni tezlashtirgani aniqlangan. Bundan tashqari, Ali va Omar (2021) tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotda islomiy va an'anaviy moliya tizimlari o'rtasidagi o'zaro ta'sirlarni tahlil qilishda, iqtisodiy va ijtimoiy omillarni e'tiborga olishga alohida urg'u berilgan. Tadqiqotda dual tizimning samaradorligini o'rganish uchun analitik va matematik modellardan foydalanilgan. Tadqiqotning natijasida dual moliya tizimi o'rtasidagi to'g'ri muvozanat global miqyosda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga yordam berishi borasidagi ilmiy faraz o'z tasdig'ini topgan. Shu bilan birga, Iqbol va Miraxor (2011) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda islomiy bankchilik tizimining asosiy tamoyillari va uning an'anaviy bankchilik tizimi bilan integratsiyasini o'rganilgan. Tadqiqotda islomiy bankchilikni amalga oshirishda yuzaga keladigan muammolar va ularning iqtisodiy tizimga ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqotning natijasida Islomiy banklar an'anaviy banklar bilan birgalikda ishlashda iqtisodiy o'sishni ta'minlashga yordam berishi, ammo, birlashtirish jarayonida ba'zi normativ muammolar yuzaga kelishi mumkin ta'kidlangan.

Bugungi kunda O'zbekistonda ham bu soha bo'yicha tadqiqot ishlari va izlanishlar olib borayotgan olim va izlanuvchilarning yildan-yilga ko'payotgani tahsinga sazovordir. Ular o'zlarining izlanishlarining natijalarini doimo e'lon qilib borishi bu sohaga qiziqish bildirayotgan yangi o'quvchilar uchun ayni muddaodir.

Jumladan, Abrorov (2024) "Islom kapital bozori ekotizimini shakllantirish istiqbollari" nomli ilmiy tadqiqot ishida dual moliya tizimi tadqiq etilgan. Ushbu tadqiqot ishida matematik modellashtirish yondashuvi ham foydalanilgan bo'lib, Islomiy va an'anaviy fond birjasi indeksleri qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotning natijasida Islomiy fond birja indeksleri inqirozlar davrida an'anaviy fond birja indekslaridan chidamli ekanligi isbotlangan. Shuningdek, Islomiy moliya tizimi muqobil moliya tizimi sifatida an'anaviy moliya tizimi bilan birgalikda ishlay olishi aniqlangan. Bundan tashqari, o'zimizning "O'zbekistonda davlat-xususiy sherikchilik (DXSH) loyihalarida islomiy moliyalashtirish konsepsiyasini asoslash va joriy etish" nomli avvalgi maqolamizda davlat-xususiy sherikchilik (DXSH) loyihalarini moliyalashtirishda an'anaviy

moliyalashtirish bilan parallel ravishda islomiy moliyalashtirishdan ham foydalanish mumkinligini asoslaganmiz. Jumladan, DXSh loyihalarini moliyalashtirishda dual moliya tizimi imkoniyatlaridan foydalanish O'zbekiston misolida ko'rib chiqqanimizda, qo'shimcha moliyaviy resurslarni jalb qilish hamda samarali moliyalashtirish mexanizmini yo'lga qo'yish nuqtai nazaridan ham katta ahamiyatga egaligi aniqlangan.

Mazkur dual moliya tizimini tadqiq etishga qaratilayotgan tadqiqotimiz yuqorida nomlari keltirilgan olimlarning ilmiy ishlaridan qo'llanilgan yondashuv, tanlab olingan mamlakatlar va davr nuqtai nazaridan farqlidir.


Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolamizni ilmiy jihatdan keng darajada tahlil qilishda miqdoriy yondashuvidan foydalanildi. Jumladan, islomiy va an'anaviy banklarning moliya bozoridagi ishtiroklarini tahlil qilishda qiyosiy tahlil qilishdan ham samarali foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Maqolamizda dual moliya tizimiga ega Malayziya, Bangladesh va Indoneziya kabi mamlakatlarning an'anaviy moliya tizimi bilan birgalikda islomiy moliya tizimini ishlash faoliyatini har bir mamlakat misolida batafsil tahlilini olib boramiz. Birinchi tahlilni eng taraqqiy etgan dual moliya tizimiga ega Malayziyadan boshlaymiz.

Malayziya iqtisodiyoti va moliyaviy institutlarini islomiy moliya tamoyillari asosida rivojlantirish va tuzilmalash bo'yicha uzoq, boy tarixga ega.




1-rasm. Dual moliya tizimiga ega 3 ta mamlakatda Islom banklari va darchalarining taqsimoti (2022)

Malayziyaning islom moliya tizimidagi tajribasi uzoq yillik tarixga ega bo'lib, ushbu uzoq yillik tarix mamlakatda ushbu sohaning mustahkam poydevori yaratilishiga olib keldi. Malayziya bugungi kunda ushbu sohada jahonda yetakchi hisoblanib, islomiy banklari, investitsiya fondlari, takoful (Islom sug'urtasi), islomiy kapital bozori faoliyati, moliyaviy texnologiyalardan foydalanish, markaziy bankning foizsiz pul bozori vositalari va xizmatlarini taqdim qilib kelmoqda va ushbu mamlakatning islom moliyasi borasidagi tajribasidan foydalanib kelmoqdalar.

Malayziya aholisining asosiy qismini musulmonlar tashkil qilganligi sababli islomiy banklarga talab kuchli edi, shu sababdan, mamlakatda 1983-yilda islom banklari tashkil etila boshlandi.

Malayziyada islom banklari faoliyatidagi rivojlanishning sabablaridan yana biri dual bank tizimining ishga tushirilishi bo'ldi ya'ni 1993-yildan boshlab an'anaviy banklar ham islomiy

moliya mahsulotlarni taklif qilishlari uchun an'anaviy banklar qoshida islom darchasini tashkil etish bo'yicha rejasi joriy etildi va shu tariqa, an'anaviy banklar ham islom banklarining mahsulot va xizmatlarini taqdim etish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Buning natijasida, Malayziyada foizli va foizsiz vositalar taklif qilinishi mumkin bo'lgan dual bank tizimi paydo bo'ldi. Malayziyada bank tizimining 3 xil ko'rinishi mavjud bo'lib, an'anaviy banklar, islom banklari va investitsiya banklari kabilardir(2-rasm).



2-rasm. Malayziyaning dual bank tizimi tahlili

Malayziyada jami 26 ta tijorat banklari bo'lib, bulardan 8 tasi mahalliy, 18 tasi esa xorijiy banklardir. Islom banklari esa 17 ta bo'lib, 6 tasi mahalliy va 11 tasi xorijiy, shuningdek, mamlakatda 11 ta mahalliy investitsiya banklari ham mavjud.

Malayziyada dastlab tashkil etilgan bank Malayziya Berhad islom banki (Bank Islam Malaysia Berhad) bo'lib, 1983-yil 1-iyuldan beri faoliyat yuritib kelmoqda. Bank dastlab Malayziya musulmon aholisining moliyaviy ehtiyojlarini qondirish maqsadida tashkil etilgan bo'lib, bank dastlab 153 mln AQSH dollari (500 million RM) ustav kapitali va 25 million AQSh dollari (79,9 million RM) aksiyadorlar tomonidan kiritilgan kapital bilan tashkil etilgan edi. Bugungi kunga kelib ushbu bank sezilarli darajada kengaydi. Berhad islom banki tashkil etilgan yilda mamlakat bo'ylab to'rtta filiali bo'lib, 272 nafar xodim faoliyat yuritgan bo'lsa, bugungi kunga kelib esa 134 ta filiali, 4500dan ortiq xodimga ega. Shuningdek, 1200 dan ortiq o'ziga xizmat ko'rsatish terminallari mavjud. Berhad banki shariat tamoyillariga mos mahsulotlar va xizmatlar portfelini doimiy ravishda kengaytirib bormoqda. Bank o'z mijozlariga transport vositalari va uy-joylarni moliyalashtirish, kredit karta xizmatlari va aktivlarni boshqarish, kichik va o'rta biznes loyihalarini moliyalashtirish va pul mablag'larini boshqarish xizmatlari taklif etadi.

1-jadval

Malayziyadagi banklarning jami aktivlari (mln RM, 2007-2021)


	Oktabr 2007	Avgust 2008	Avgust 2010	Avgust 2013	Avgust 2016	Avgust 2019	Avgust 2021
An'anaviy banklar	950959,04	976982,17	1136755,66	1528786,63	1766482,40	1956246,09	2071337,03
Islomiy banklar	71182,23	84547,23	243534,87	400749,66	542859,56	791360,86	910533,53
Investitsiya banklari	65985,23	80312,66	60933,77	59746,48	50611,64	47112,71	50608,32
Jami	1088127,14	1141842,05	1141224,30	1989282,77	2359953,60	2803719,66	3032478,88

Malayziyada xorijiy islom banklari ham tashkil etilib, o'z faoliyatlarini yuritmoqda. Mamlakatdagi dastlabki xorijiy islom banklaridan biri P.T Muamalat Indoneziya islom banki

(P.T Bank Muamalat Indonesia) 1991-yilda tashkil etilgan. Muamalat banki o'z mijozlariga investitsion hisob va joriy hisob xizmatlaridan tashqari, uy-joy, aylanma mablag'larni moliyalashtirish, tijorat moliyasi, pensiya jamg'armasi, takoful va ijara mahsulotlarini taklif etib kelmoqda.

Malayziyaning Markaziy banki Bank Negara tomonidan 2007-yil yanvaridan 2021-yil avgustigacha bo'lgan davrlarda, ya'ni 15 yil mobaynidagi banklarning umumiy qiymatining qiyosiy tahlilini e'lon qilindi (2-jadval). Banklarning umumiy qiymatiga nazar tashlaydigan bo'lsak, 2007-yil yanvar oyida taxminan 1 trillion RM bo'lgan bu qiymatlar 2021-yil avgust oyida 3 trillion RMga yetgan, ya'ni uch barobar ko'paygan. Bu qiymatlar tijorat banklarining umumiy qiymati 1 trillion RMDan 2 trillion RMga oshganligini ko'rsatdi. Ayniqsa, islom banklarining to'liq qiymati 70 milliard RM dan taxminan 1 trillion RM ga ko'tarildi. Bu so'nggi 15 yilda Malayziyada islomiy banklarga bo'lgan talab yuqori sur'atda o'sganligini ko'rsatadi.

2007-2021-yillar mobaynida banklarning umumiy qiymati 3 barobarga, an'anaviy banklar qiymati 2 barobarga, islom banklarining umumiy qiymati esa taxminan 13 barobarga oshganini ko'rish mumkin (3-rasm). Bundan Malayziyada islom banklariga bo'lgan talabning keskin oshganligini ko'rish mumkin.



3-rasm. Umumiy bank aktivlarining trend tahlili.

Dual moliya tizimiga ega keyingi mamlakatimiz Bangladesh bo'lib, quyida ushbu mamlakatning dual moliya tizimi tahlilini olib boramiz.

2-jadval

Islom banklarining Bangladeshdagi barcha banklarga nisbatan ko'rsatkichlari (milliard BDTda)

	2022 yil iyul-sentyabr		2022 yil aprel-iyun	
	Barcha banklar	Islom banklari	Barcha banklar orasida islom banklarining ulushi (foiz)	Barcha banklar orasida islom banklarining ulushi (foiz)
	1	2	3 = (2/1*100)	4
Jami depozitlar	15723.88	4213.75	26.80	26.19
Jami investitsiyalar (an'anaviy bank tizimidagi kreditlar va avanslar)	13329.08	3862.21	28.98	28.52
Pul o'tkazmalari	537.34	202.23	37.63	31.57
Umumiy ortiqcha likvidlik	1741.77	175.25	10.06	13.74
Bank filiallarining umumiy soni	10974	2139	19.49	20.13
Jami qishloq xo'jaligi krediti	65.84	9.45	14.35	23.44

Islom moliya sektori hozirda islom banklari, islom obligatsiyalari, islom investitsiya fondlari va islom sug'urtasi kabi aktivlari jihatidan global sanoat sifatida qaralmoqda. Sektor xavflarni taqsimlash optimizmi, inklyuzivligi va real aktivlar bilan ta'minlangan tranzaksiya xususiyatlariga asoslangan holda global miqyosda rivojlanmoqda. Global tendensiyalarga muvofiq, Bangladeshdagi islom bank tizimi ham Bangladesh banki tomonidan qo'llab-quvvatlangan siyosat va kuchli jamoatchilik talabi tufayli mustahkam o'sishga erishib bormoqda.

Bugungi kunda butun bank tizimidagi jami 10974 ta filialdan 1605 tasiga ega bo'lgan 10 ta to'laqonli islom banklari faoliyat ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, Bangladeshda 13 ta an'anaviy tijorat banklarining 511 ta islomiy bank darchalari ham islomiy moliyaviy xizmatlar ko'rsatmoqda.

Islom bank tizimi Bangladeshning o'sishi va iqtisodiy rivojlanishiga katta hissa qo'shadi. Tizim an'anaviy banklar uchun subyektiv likvidlik koeffitsienti (SLR) pastligi va investitsiya-depozit nisbati (IDR) yuqoriligi tufayli tobora jozibali va foydali bo'lib ko'rinadi. Ko'rinib turibdiki, tizim mamlakatda ajoyib o'sish va kengayishni boshdan kechirdi, chunki vaqt o'tishi bilan depozitlar va investitsiyalar sezilarli darajada oshdi.

Islom banki tizimi haqida qisqacha ma'lumot 5-jadvalda keltirilgan.


Islom bank tizimidagi jami depozitlar 2022-yil sentabr oyi oxirida 2022-yil iyun oyi oxiriga nisbatan 90,35 milliard BDT yoki 2,19 foizga va o'tgan yilning shu choragiga nisbatan 447,97 milliard BDTga yoki 11,90 foizga oshib, 4213,75 milliard BDTni tashkil etdi.

Islom bank tizimidagi jami investitsiyalar (an'anaviy bank tizimidagi kreditlar va avanslar) 2022-yil sentabr oxirida 3862,21 milliard BDTni tashkil etdi, bu o'tgan yilga nisbatan 43,92 milliard BDTga yoki 1,15 foizga va 494,01 milliard BDTga yoki 2022 yil iyun oyiga nisbatan 14,67 foizga o'sganini ko'rsatadi.

Islom bank tizimi filiallari soni, shu jumladan, islomiy filiallari va an'anaviy tijorat banklarining darchalari 2022-yil sentabr oxirida 2139 taga yetdi, bu 2022-yil iyun oyi oxirida 2121 tani, o'tgan yil sentabr oyi oxirida esa 1835 tani tashkil etdi.

Islom bank tizimidagi jami bandlik 2022 yil sentyabr oyi oxirida 49433 nafarni tashkil etdi, bu 2022 yil iyun oyi oxirida 48728 nafar va 2021 yil sentyabr oyi oxirida 44453 nafarni tashkil etdi.

Islom banklarining jami bank sanoatidagi bozor ulushi 2022-yil sentabr oxirida depozitlar bo'yicha 26,80 foizni va investitsiyalar bo'yicha 28,98 foizni tashkil etdi, bu 2022-yil iyun oyi oxirida mos ravishda 26,19 va 28,52 foizni tashkil etdi.



4-rasm. Bangladeshning dual bank tizimi barcha faoliyati tahlili (2022 yil iyul-sentyabr)

Tahlil qilinayotgan davrda butun bank sektori tomonidan amalga oshirilgan pul o'tkazmalarining umumiy hajmining 37,63 foizi Islom bank tizimi ulushini tashkil etdi.

Islom bank tizimi Bangladeshda tashkil etilganidan buyon depozitlarni jalb qilish va turli iqtisodiy faoliyatni moliyalashtirishda muhim rol o'ynab kelmoqda. Bugungi kunda islom bank tizimi jami bank sektori depozitlarining 26 foizdan ortig'ini va investitsiyalarning 28 foizdan ortig'ini tashkil etmoqda. Islom kapital bozori, islom sug'urtasi (takaful) va mikromoliya sektori kabi islom moliya sektorining boshqa tizimlari ham qo'llab-quvvatlovchi siyosatlar qabul qilinsa va amalga oshirilsa, tizimli ravishda rivojlanish yana ortishi mumkin.

Tadqiqotimizda tahlil qilinayotgan dual moliya tizimiga ega so'ngi mamlakat Indoneziya bo'lib, quyida ushbu mamlakatning tahlilini olib boramiz.

Indoneziya iqtisodiyotiga kengroq muqobil bank xizmatlarini taqdim etish maqsadida mamlakatda islom banking rivojlanishi Indoneziya bank arxitekturasi (API) ga muvofiq dual bank tizimi ostida amalga oshirilmoqda. Islom banki va an'anaviy bank tizimlari milliy iqtisodiyot tarmoqlarini moliyalashtirish qobiliyatini oshirish doirasida mablag'larni yanada kengroq jalb etish bilan birgalikda va sinerjik tarzda qo'llab-quvvatlamoqda.

Indoneziyada islom banklarini tashkil etishga bo'lgan harakatlar ikkinchi jahon urushidan oldin boshlangan bo'lib, lekin ushbu harakatlar o'z natijasini 1990-yillarga ko'rsatgan. Mazkur maqsad Indoneziyadagi birinchi tashkil etilgan bank Bank Muamalat Indoneziya (BMI) bilan bog'liq hisoblanadi. Jumladan, bu harakatlar Filippinda 1973-yilda va Malayziyada 1983-yilda o'z samarasini bergan bo'lsa, ushbu mamlakatlarga nisbatan Indoneziyada islom banklarining tashkil etilishi juda kech boshlangan. Olimlarning bu boradagi tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, buning asosiy sababi sifatida musulmon jamiyati va hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlanmagani (siyosiy irodaning yo'qligi) bilan bog'liqligi aniqlangan.

Indoneziyada islom bankini tashkil etish bilan bog'liq masalalarni uch bosqichga bo'lib o'rganish mumkin: birinchi bosqich – ko'rib chiqish bosqichi, ikkinchi bosqich - tayyorgarlik va shakllanish yoki amaliyotga joriy etish bosqichi, uchinchi bosqich - shakllanishdan keyingi bosqich.


Dunyodagi eng ko'p musulmon aholisi bo'lgan Indoneziya islomiy moliya bozorida yettinchi o'rinda turadigan yirik islomiy moliya sanoatiga ega mamlakat hisoblanadi. Indoneziya Islomiy moliya uchun maxsus qonunlar chiqarilishidan oldin u an'anaviy moliya institutlari qonuni bilan tartibga solingan va amal qilinib kelingan. 2008-yilga kelib esa, hukumat islomiy moliya bozorini rivojlantirish va tartibga solish uchun turli qonunlarni qabul qildi. Jumladan, 2008-yildagi 19-sonli "Suveren sukuk to'g'risida"gi qonun va ushbu yildagi 21-sonli "Shariat banklari to'g'risida"gi qonun qabul qilinishi Indoneziyada islom banklarining ko'proq ochilishiga asos bo'ldi. Bundan tashqari, Indoneziya hukumati Majelis Ulama Indoneziya (Indoneziya Islom ulamolari kengashi (MUI)) orqali mamlakatda islom banklarini ishga tushirish uchun texnik-iqtisodiy asoslash ishlarini olib bordi. Shuningdek, Indoneziya Islom ulamolari kengashi (MUI) Indoneziyada fatvo chiqarish uchun yagona vakolatga ega organ hisoblanadi. Indoneziya Markaziy banki 2000-yilda Bank nazorati boshqarmasi qoshida Shariat bank ishlari bo'yicha byuroni tashkil etdi. Mamlakatda qabul qilingan yuqoridagi qonunlar va infratuzilmalar islom moliyasini rivojlanishi uchun asos hisoblanadi.

Indoneziya Markaziy banki 2000-yilda Bank nazorati boshqarmasi qoshida Shariat bank ishlari bo'yicha byuroni tashkil etdi. Mamlakatda qabul qilingan yuqoridagi qonunlar va infratuzilmalar islom moliyasini rivojlanishi uchun asos hisoblanadi. 1999-yilda Indoneziyada ikkita islom banki mavjud bo'lgan bo'lsa, 2023-yilga kelib esa sezilarli darajada ortdi. Indoneziyadagi islom banklari, islomiy darchalar va islomiy qishloq banklaridan iborat islom banki kengayishda davom etmoqda.

2023-yil sentyabr holatiga ko'ra, Indoneziyada 120 ta tijorat banki (4 ta davlat banki va 117 ta xususiy bank) mavjud. Bunda islom banklarining ulushiga kelsak, 14 ta to'liq islom banki, 22 ta islomiy darcha va 162 ta islomiy qishloq banki Indoneziyada islom bankchiligi o'sishiga hissa qo'shdi, ularning umumiy aktivlari 869 trillion rupi hisoblanib, Islom banki aktivlari o'tgan yilga nisbatan 11,4 foizga o'sib, moliyalashtirish va depozitlarning o'sishi 9 foiz (yillik) va 16 foiz (yillik) darajasida qayd etilgan (5-rasm).

Islomiy moliya aktivlari Indoneziyada 2023 yilda 160,6 milliard AQSh dollariga yetdi.

2008-yil 16-iyulda chiqarilgan 21-sonli qonunning kuchga kirishi Indoneziyada islom bankini rivojlantirish uchun yanada mos huquqiy bazani yaratdi va natijada sanoatning o'sishini tezlashtiradi. So'nggi besh yil ichida aktivlarning yillik o'rtacha o'sishi 65% dan ortiq bo'lgan ta'sirchan rivojlanish bilan islom banki sanoati milliy iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlashda muhimroq rol o'ynashi kutilmoqda.



5-rasm. Indoneziyada islom banklari soni (2023-yil)

Indoneziya hukumati, xalqaro moliya institutlari va xorijiy investitsiyalar tomonidan rivojlanayotgan sanoatni qo'llab-quvvatlayotganligi sababli bu tendensiya o'sishda davom etishi kutilmoqda. Islom banki, islom qimmatli qog'ozlari (sukuk), loyiha va infratuzilmani moliyalashtirish, islom sug'urtasi (takaful) va islom mikromoliyalash sohasida ijobiy belgilar bilan Indoneziya so'nggi yillarda Malayziya va Bahrayn kabi islomiy moliya yurisdiksiyalariga qarshi kuchli raqib ekanligini isbotlab kelmoqda. Bundan tashqari, mamlakatda Islomiy bank xizmatlari va mahsulotlarini taklif etuvchi banklar va moliya tashkilotlari soni doimiy oshib borishi va xorijiy investorlar uchun yaratib berilayotgan qulay investitsiya muhiti asnosida xorijiy investorlar islom kapital bozorining kengayish imkoniyatlarini e'tirof etishmoqda hamda bu esa mamlakatga xorijiy investitsiyalar oqimini yil sayin ortishiga sabab bo'lmoqda.

2024-yilda Fitch Reytingi bergan tahlilga ko'ra, Indoneziya shariat banklari sanoatining ko'proq birlashib ketishiga yordam beradigan va sektor raqobatbardoshligini oshirishi mumkin bo'lgan qo'llab-quvvatlovchi tartibga soluvchi muhitdan foydalanishini kutmoqda, ayniqsa yirik shariat biznes bo'linmalari (SBU) bunda asosiy o'rin tutadi. Mazkur birlashishlar an'anaviy banklar bilan kuchli raqobat sharoitida islom banki sektori duch keladigan mavjud muammolarni hal qilishga yordam berishi mumkin.

Indoneziya islom banklarining moliyalashtirish bozoridagi ulushi 2023-yil oxirida 8,0% gacha oshdi (2022 yilda 7,7% o'sishni qayd etgan), yil oxirigacha shariat moliyalashtirishning o'sishi 11,4% ga ortgan bo'lsa, an'anaviy kredit o'sishi 6,4% dan yuqori bo'ldi. Ushbu tendensiya 2024-2025 yillarda davom etishi kutilmoqda.

Xulosa va takliflar.

Olib borgan tadqiqotimiz natijasida quyidagi xulosamizni keltirib o'tamiz. Islom moliyasi tizimini dastlab musulmon mamlakatlarida joriy etilgan bo'lsa-da, keyinchalik muqobil tizim sifatida dunyoning barcha mintaqalariga tarqala boshladi va mamlakatlarda dual moliya tizimi ya'ni an'anaviy moliya bilan birgalida islomiy moliya tizimidan ham birgalikda foydalangan holda ijobiy natijalarga erisha boshlashdi. Bugungi kunda iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda ham bu tizimdan samarali foydalanilmoqda. Tadqiqotimizda dual moliya tizimiga ega eng yaxshi 3 ta mamlakat Malayziya, Bangladesh va Indoneziyalarni tahlilini amalga oshirdik. Ushbu tadqiqotimiz natijasiga ko'ra, mazkur mamlakatlar iqtisodiyotlarida dual moliya tizimini muvaffaqiyatli yo'lga qo'yishlarida qonunchilik, siyosiy iroda, malakali kadrlar, shariat va buxgalteriya standartlari, ikki moliya sektorining parallel ishlashini

ta'minlash maqsadida berilgan teng imkoniyatlar, aholi va biznes sektori vakillarining moliyaviy savodxonligi kabi omillar muhim rol o'yagan.

Mazkur mamlakatlarda ikki (dual) moliya tizimi ham iqtisodiyotdagi moliyaviy resurslarga bo'lgan talabni qondirish, moliyaviy inkluziyani rag'batlantirish, xorijiy va ichki investitsiyalar oqimini oshishi, makroiqtisodiy ko'rsatkichlardagi salbiy holatlarni yaxshilanishi, xalqaro tashkilotlarning maqsadlari, jumladan, qashshoqlikni qisqartirish, barqaror rivojlanish maqsad (SDG)lari, yashil iqtisodiyotga o'tish va boshqa bir qancha maqsadlarga erishishda ijobiy natijalarni ta'minlamoqda.

Adabiyotlar /Jumepamypa/Reference:

Abed, S., & Al-Matar, H. (2018). *Islamic finance and conventional finance: A comparative study of their economic impacts*. *Journal of Finance and Economics*, 45(2), 102-119.

Abrorov S.Z., Adxamjonov Sh.B. (2022), *Dualistik moliya tizimiga ega mamlakatlarda islom moliyasining tahlili*. "Logistika va iqtisodiyot" ilmiy elektron jurnali, 3-son, 13-16 bet. www.economyjournal.uz

Ali, R., & Omar, S. (2021). *Dual finance systems: A theoretical and empirical study on Islamic and conventional finance integration*. *Asian Economic Policy Review*, 8(4), 223-235.

Bank Islam Malaysia Berhad (2022), *About Us*, Access Date: 05.09.2022, <https://www.bankislam.com/corporate-info/>

Bank Negara (2022), *Banking System: Statement of Assets*, 07.09.2022, <https://www.bnm.gov.my/-/monthly-highlights-statistics-in-july-2022>

Irgasheva G.S., Zayniddinov R.X (2024). *Ijara (islomiy lizing) va an'anaviy lizingning qiyosiy tahlili*. *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil ilmiy elektron jurnali* 2 son – fevral.

Islamic Financial Services Board. (2023). *Prudential and Structural Islamic Finance Indicators, Data By Country (Islamic Banking)*. <https://www.ifsb.org/>

Khan, M. (2020). *The impact of Islamic finance on economic growth: Case studies of Saudi Arabia and Malaysia*. *International Journal of Economics and Finance*, 12(1), 33-47.

Mirakhor, A. and Iqbal, Z. (2011). *An Introduction To Islamic Finance: Theory and Practice*. Singapore: John Wiley & Sons.

P.T Bank Muamalat Indonesia, (2022), *About Muamalat*, Access Date: 12.09.2022, <https://www.bankmuamalat.co.id/index.php/en/company-profile-of-bank-muamalat>.

Zayniddinov R. *Islomiy va an'anaviy banklarning qiyosiy tahlili*. "Moliya bozorini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari, zamonaviy tendensiyalari va istiqbollari" mavzusidagi 3-respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. 2024-yil mart. 472-476 b.

Zayniddinov R.X. (2023). *O'zbekistonda davlat-xususiy sherikchilik (DXSH) loyihalarida islomiy moli-yalash tirish konsepsiyasini asoslash va joriy etish*. 1401-1410 betlar. <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>. 2023-yil, dekabr. No 11-12-sonlar.